

---

## O'SMIRLIK DAVRIDA O'QUV FAOLIYATI MOTIVI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qarshiboyev Sardor Alisher o'g'li,  
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali stajyor o'qituvchisi*

---

*Karakulova Umida Abduvakilovna,  
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali stajyor o'qituvchisi*

---

*Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida o'quv faoliyati motivi haqida umumiy tushunchalar, motivlarning psixologik xususiyatlari, olimlarning qarashlari keltirilgan. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari guruhii taxlili amalga oshirilgan.*

*Kalit so'zlar: O'smirlik, motiv, o'quv motivi, kognitiv jarayonlar, intellektual faoliyat, oila, maktab.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВА УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ

*Каршибоев Сардор Алишер угли,  
Преподаватель-стажер Джизакского филиала Национального университета  
Узбекистана*

---

*Каракулова Умида Абдувакиловна,  
Преподаватель-стажер Джизакского филиала Национального университета  
Узбекистана*

---

*Аннотация: В статье представлены общие понятия, психологические характеристики мотивов, взгляды ученых на мотив учебной деятельности в подростковом возрасте. Результаты эксперимента анализировались по группам.*

*Ключевые слова: Подростковый возраст, мотивация, учебная мотивация, познавательные процессы, интеллектуальная деятельность, семья, школа.*

## PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMATION OF THE MOTIVE FOR LEARNING ACTIVITY IN ADOLESCENCE

*Karshiboev Sardor Alisher Ugli,  
Trainee teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

---

*Karakulova Umida Abduvakilovna,  
Trainee teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

---

*Annotation: This article presents general concepts, psychological characteristics of motives, views of scientists about the motive of educational activity in adolescence. The results of the experiment were analyzed by group.*

*Key words: Adolescence, motivation, educational motivation, cognitive processes, intellectual activity, family, school.*

*Kirish: Olimlarning fikricha, o'smir yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllanishiga qadriyatlar, oilaviy an'analar, makrab talimidagi ijobiy pedagogik munosabatlar va o'quvchilarni o'z-o'zini anglash kabi omillar o'quv motivatsiyasining shakllanishiga olib keladi.*

*Taniqli psixolog olim E.G'.G'oziyevning fikricha o'smirlik - kognitiv jarayonlarning tez va samarali rivojlanishi davri bo'lib, idrokning maqsadliligi, barqaror, ixtiyoriy diqqat va mantiqiy xotiraning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu vaqtda mavhum, nazariy tafakkur faol shakllanadi, aniq g'oyalar bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalarga asoslanadi, murakkab xulosalar tuzish, gipotezalarni ilgari surish va ularni sinab ko'rish qobiliyati paydo bo'ladi. Tafakkurni shakllantirish aks ettirish bilan uzviy bog'liq. Bu jarayon o'smirda o'z-o'zini anglashni rivojlantirish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.*

*O'smirlik davridagi o'zgarishlar aynan shu davrning murakkabligi bo'lib, turli bolalar buni boshqacha his qilishadi. Shu bilan birga, o'quvchining o'quv faoliyatining ikki jihati bu o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi: uni kattalar tomonidan tashkil etilishi va o'smirning o'zida shakllanishi. O'smirlik davrida intellektual faoliyatdagi individual farqlar kuchayadi, bu mustaqil fikrlash, intellektual faollik, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish bilan bog'liq.*

Adabiyotlar tahlili: Hozirgi kunda o'qish faoliyatidagi motivlar muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish anchagina jadallashdi. Respublikamiz psixologlari ta'lim jarayonida o'qish motivlarini o'rganishga, psixologik tahlil etishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Zamonaviy psixologiyada o'quv motivlarining turli xil nazariyalari paydo bo'lmoqda. Bunday muammolarni o'zbek psixologlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar o'rganib, bu sohada o'ziga xos yo'nalish yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Professor M.G.Davletshin rahbarligida bu muammo yangicha ilmiy asosda o'rganilmoqda. M.G.Davletshinning fikricha, yoshlar har xil sohalar mazmuniga o'zlarining ongli ravishda yondashuvlari orqali ularda ilm olishga nisbatan to'g'ri va oqilona tasavvurlar ertaroq hosil bo'ladi.

Taniqli olim E.G'.G'oziyev o'z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilish jarayonining qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai, deb hisoblaydi. E.G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi baholash, inson faoliyatini aniqlash, o'quv faoliyatini rejalashtirishni aniqlash, maqsad qo'ya olishni aniqlash, o'zini-o'zi nazorat qilishni aniqlash, bo'sh vaqtni aniqlash kabi tushunchalar haqida mulohazalar yuritiladi.[1] Olim shu tushunchalarni aniqlash maqsadida o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy tomonlarini yoritib beradi. Bu tushunchalarni aniqlash uchun olim shu tushunchalarga mos anketalardan foydalandi. Har bir anketada o'ndan ortiq savol bo'lib, ba'zan qo'shimcha savollar ham berilgan. Bunda, albatta, o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olingan. Suhbatlarda esa tushunchalarning etimologiyasiga katta ahamiyat berilgan. Bunday tadbirlar o'quv faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismlari bilan tanishtirishni osonlashtirgan. Shuningdek ushbu tadqiqotlarda o'qish va o'qitish jarayoni uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan va o'quvchining o'zini-o'zi anglash bosqichlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

O'quv jarayonida rag'batlantirish va jazolashning ahamiyati borasidagi fikrlar U.Kennedi va G.Vilkottlarning "Rag'batlantirish va jazolash-mayl uyg'otuvchi motivlar sifatida"[2] nomli maqolasida keltiriladi. Bu maqolada turli maxsus guruhlar va sinflar bolalari hamda normal va qoloq o'quvchilar xususida fikr yuritilgan. O'quvchilar turli topshiriqlarni qanday bajarganliklari o'rganilgan. Yuqoridagi fikrlarga asosan shuni e'tirof etish mumkinki, tadqiqot natijalarida qarama-qarshilik kuzatiladi, ya'ni ba'zi mualliflar maqtov va rag'batlantirishni kuchli moyillik uyg'otuvchi kuch deyishsa, boshqalari jazolash maqtovga nisbatan kuchliroq ta'sir etuvchi omil, deb hisoblaydilar.

G'.B.Shoumarov tomonidan maxsus maktablarda bir yillik ta'lim natijasida I-II sinflardagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar intellektual darajasining dinamik xususiyatlari, o'qish motivlari aniqlangan.[3] Bu tekshirish boshqa tadqiqotlardan shunisi bilan farq qiladiki, unda D.Veksler intellekt testingning modifikatsiya qilingan varianti qo'llanilgan.

G.Rozenfeld o'qish motivatsiyasi shakllanishida quyidagi omillarning ahamiyati katta ekanini ko'rsatib o'tgan[4]:

1. Ta'lim olish uchun o'qish.
2. Ma'lum qiziqishlarsiz shunchaki o'qish.
3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o'qish.
4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o'qish.
5. Majburlab yoki qo'rqanidan o'qish.
6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o'qish.
7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish.
8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim.

Amerikalik olimlar o'quv jarayonini anglab etilgan motivlar bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan mayl-istak masalalari bilan bog'lab o'rganganlar.

Ular o'quvchining ayrim xatti-harakatlariga qanday psixologik omillar ta'sir ko'rsatishini o'rganish orqali motivlashtirishning ayrim tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilganlar. Mazkur tadqiqotchi-olimlarni E.Torndaykning izdoshlari deb hisoblash mumkin.

E.Torndayk o'quv jarayonini u yoki bu qo'zg'atuvchiga (stimulga) javob reaksiyasining holati bilan bog'liqligini, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasidagi ma'lum aloqani o'rnatish bilan izohlanishini aytib o'tadi.

Bunday umumiy ta'rif unga ushbu aloqa hoh labirintdagi kalamushning harakatida, hoh insonning, aytaylik, sonlarni, ma'nosi yo'q bo'g'inlarni yod olayotganida yoki yumuq ko'z bilan chiziq tortayotgandagi xatti-harakatlarida qanday yuzaga chiqishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi: O'qishga nisbatan ijobiy motiv, motivatsiyani vujudga kelishi, barqarorlashuvi o'quvchi va o'smirlar tomonidan fan asoslarini o'zlashtirish muvaffaqiyati, shaxsni shakllantirish garovidir. Shuning uchun qiziqish, shaxsning xatti-harakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xohishistak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili bo'lib hisoblanadi. O'smir o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi sabab yoki motivlar faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsni xulq-atvori, ya'ni shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishini ham izohlashga xizmat qiladi.

Bola tarbiyalanayotgan oila maktab o'quvchilarining ta'lim motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ya'ni ota-ona va bola munosabatlari sohasida yotadi.

Insonning harakatlari ma'lum motivlardan kelib chiqadi va ma'lum maqsadlarga qaratilgan. Motivatsiya insonni harakatga undaydi. Motivlarni bilmasdan turib, inson nima uchun bir maqsadga intilishini tushunish mumkin emas. O'quv motivatsiyasini o'rganishda oila ham muhim ro'l o'ynashini ko'rishimiz mumkin.

Ota-onalar farzandi uchun qulay muhit yaratish kerak. Farzand bilan uning o'rganishga munosabati haqida gapirish:

- u nima uchun o'qiydi;
- maktabda u uchun eng muhim narsa nima;
- uni ko'proq nima qiziqtiradi;
- u eng ko'p qo'rqadigan narsalarni e'tiborga olish kerak.

Shakllanish jarayonida bolaning motivatsion sohasiga doimo yaqin atrof-muhit ham ta'sir qiladi. Shuning uchun biz tarbiyaviy ta'sirni shunday tashkil etishimiz kerakki, bolaga eng yaxshi motivatsion ko'rsatmalarni singdirish, shu bilan birga hozirgi paytda shakllangan motivatsiya elementlarini hisobga olgan holda va ulardan uning keyingi rivojlanishi uchun foydalanish kerak. Ota-onalarning asosiy vazifasi bolada ichki motivlarni rivojlantirishdir. Agar faoliyat bilimga qiziqish kabi motivlar bilan rag'batlantirilsa, bolaning o'rganishi ancha oson va qiziqarli bo'ladi. Hissiy tarbiya - tashvishni bartaraf etish mashqlarini bajarish, qiyinchiliklarni oldindan bilish qobiliyatini shakllantirish, o'quv jarayonida ijobiy his-tuyg'ularni kuchaytirish - o'quv motivatsiyasini rivojlantirish vositasidir.

Tahlil va natijalar: O'tkazilgan tadqiqotda sinaluvchilardan olingan natijalarga asoslanib, o'smirlardagi o'quv motivatsiya xususiyatlarini aniqlash maqsadida empirik taxlil o'tkazdik. Olingan birlamchi ma'lumotlarimizni taviflovchi statistikasini amalga oshirdik.

1. jadval

**V. Gerbachevskiy "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasi tavsiflovchi statistikasi.**

<b>Shkalalar</b>	<b>N</b>	<b>Minimal</b>	<b>Maksimal</b>	<b>O'rtacha qiymat</b>	<b>Standart og'ish</b>	<b>Assimetriya</b>	<b>Ekzes</b>
<u>Ichki motiv</u>	115	3	21	13,93	3,827	-,458	,156
<u>Bilish motivi</u>	115	6	21	14,18	2,674	-,684	<b>1,339</b>
<u>Maglubiyatdan qochish motivi</u>	115	3	21	13,29	3,955	-,517	,066
<u>Rakobatchilik motivi</u>	115	5	21	13,97	3,850	-,120	-,659
<u>Iroda kuchi</u>	115	4	20	13,12	3,591	-,033	-,785
<u>Erishgan natijani baholash</u>	115	1	18	8,17	2,939	,027	<b>1,162</b>
<u>Oz imkoniyatini baholash</u>	115	3	21	14,49	2,906	-,649	<b>2,311</b>
<u>Oz kuchini safarbar etish</u>	115	6	27	15,44	3,707	-,086	,065
<u>Tashabbuskorlik</u>	115	6	21	16,47	3,429	-,642	-,040

Tadqiqot ishimizda o'smir yoshdagi o'quvchilarda liderlikni o'rganish maqsadida V. Gerbachevskiyning "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasidan foydalandik. V.Gerbachevskiy so'rovnomasi motivatsiya tuzilmasining 15ta komponentlarini:

Ichki motiv - topshiriqlarning jalb etuvchanligi, topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi, bilish motivi - sub'ektning o'z faoliyat natijalariga qiziqishi, natijalardan qoniqishi, qochish motivi

- natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishidan qochish, musoboqalashuv motivi - natijalarini boshqalarnikidan ustunroq bo'lishiga intilishi, faoliyatni almashtirish motivi - faoliyatni o'zgartirish xohishini paydo bo'lishi, boshqa faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga urinish, o'zini e'zozlash motivi – faoliti qat'iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo'yish va amalga oshirishga intilish, natijalarning ahamiyatliligi - sabab va oqibat tamoyiliga ko'ra, muhim shart-sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish, topshiriqlarning murakkabligi - vazifalarning murakkabligi, irodaviy quvvat - topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatni namoyon bo'lishi, natijalarga erishganlik darajasining bahosi - ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholashi, o'z imkoniyatlarini bahosi – mavjud imkoniyatlarini to'g'ri baholash, quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi - natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishi, natijalarni kutilganlik darajasi - faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi, natijalarning qonuniyatilari - natijalarning motivatsiya tuzilmasiga ta'siri, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi hamda tashabbuskorlik kabilarni qabrab oladi.

2. jadval

V. Gerbachevskiy "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasi Kolmogorov-Smirnov mezonini bo'yicha taxlil

Shkalalar	Kolmogorov-Smirnov	Ishonch daraja
Ichki motiv	1,507	,021*
Bilish motivi	1,806	,003**
Maglubiyatdan qochish motivi	1,190	,118
Rakobatchilik motivi	1,463	,028*
Iroda kuchi	1,036	,234
Erishgan natijani baholash	1,792	,003**
Oz imkoniyatini baholash	1,824	,003**
Oz kuchini safarbar etish	,873	,431
Tashabbuskorlik	1,148	,143
Muvafakkiyatga erishish	1,112	,169

V. Gerbachevskiyning "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasi ko'rsatkichlar tahlili bo'yicha quyidagilar: Ichki motiv ( $D_z = 1,507$ ;  $p < 0.5$ ) Bilish motivi ( $D_z = 1,806$ ;  $p < 0.2$ ) Rakobatchilik motivi ( $D_z = 1,190$ ;  $p < 0.5$ ) Erishgan natijani baholash ( $D_z = 1,792$ ;  $p < 0.2$ ) O'z imkoniyatini baholash ( $D_z = 1,824$ ;  $p < 0.2$ ) aniqlandi. Tadqiqodimizning keyingi bosqichida tanlagan mazkur metodikamiz guruhiy taxlilini Mann Uitni mezonini bo'yicha natijalarni tahlil qilamiz.

3. jadval

V. Gerbachevskiy "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasi bo'yicha guruhiy tahlili (jins bo'yicha)

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtacha rank	Ranklar summasi	U-mezon	p
Ichki motiv	yigit	65	58,26	3787,00	1608,000	,923
	qiz	50	57,66	2883,00		
Bilish motivi	yigit	65	51,19	3327,50	1182,500	,011*
	qiz	50	66,85	3342,50		
Maglubiyatdan qochish motivi	yigit	65	55,45	3604,50	1459,500	,348
	qiz	50	61,31	3065,50		
Rakobatchilik motivi	yigit	65	56,07	3644,50	1499,500	,675
	qiz	50	60,51	3025,50		
Iroda kuchi	yigit	65	59,14	3844,00	1551,000	,702
	qiz	50	56,52	2826,00		
Erishgan natijani baholash	yigit	65	56,98	3703,50	1558,500	,449
	qiz	50	59,33	2966,50		
Oz imkoniyatini baholash	yigit	65	60,02	3901,50	1493,500	,788
	qiz	50	55,37	2768,50		
Oz kuchini safarbar etish	yigit	65	57,27	3722,50	1577,500	,126
	qiz	50	58,95	2947,50		
Tashabbuskorlik	yigit	65	62,15	4040,00	1355,000	,126
	qiz	50	52,60	2630,00		
Muvafakkiyatga erishish	yigit	65	56,70	3685,50	1540,500	,632
	qiz	50	59,69	2984,50		



Mann Uitni U-mezoni bo'yicha V. Gerbachevskiy "Shaxs motivatsiyasi aniqlash" metodikasining Bilish motivi shkalasida guruhlar o'rtasida ahamiyatli tafovutlar ( $U=1182,500$ ;  $p<0,05$ ) kuzatildi.

Motivlar tizimi faoliyatining harakatga keltiruvchi kuchi-qo'zg'atuvchisi bo'lib, ular o'z tarkibiga bilish ehtiyojlari bilan bog'liq quyidagi singari o'ta muhim jihatlardan iborat:

- maqsadlar;
- qiziqishlar;
- intilish;
- g'oyalar;

Xulosa: O'quv faoliyati insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar xosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muxit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli, natijasi ilm bo'lib, xar qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali, o'quv jarayonida ro'y beradi. Shuningdek, bilm insongagina xos bo'lgan ma'naviy extiyoj, xayotiy zaruriyatdir. Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli xam o'zi uchun kator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining xar qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar xosil qilinadi. Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar xosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir.

Bilishning 2 shakli mavjud:

- 1- kundalik (empirik) bilish;
- 2- nazariy (ilmiy) bilish.

Tadqiqodda qizlarda bilish motivi yuqori chiqqan. Bu qizlarda voqelikka bo'lgan munosabat, shaxllararo munosabatda mayda detallargacha, ikir-chikirlarga va yangiliklarga nisbatan yigitlarga ko'ra koproq e'tibor berishlari mumkinligini bildiradi. O'quv faoliyatida fanlarni o'zlashtirish jarayonida xam yigit -qizlarda bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotimizdan shu ma'lum bo'ldiki, o'smirlar o'quv motivining o'ziga xos tomonlari mavjud: o'quv jarayoni o'ziga jarayon bo'lib bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq, hududiy jihatdan rivojlanganlik, muhitdagi komunikatsiyaning rivoji unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. o'quv motivatsiyasining yuqoriligi o'smirdagi o'ziga ishonch va fidokorlik tuyg'ulari bilan bogliq rivojlanadi,

o'quv motivining yaxshi shakllanishi o'smirdagi tobelikni va mutaquil emaslikni bartaraf etadi.

Adabiyotlar.

1. Ғозиев Э., Жабборов А. Фаолият ва ҳуққ-атвор мотивацияси: (Университетларнинг психология мутахассислиги учун ўқув қўлланма). – Тошкент, 2003.

2 Ҳайдаров Ф.И. Қишлоқ мактаблари ўқувчиларида ўқиш мотивларини шакллантириш: психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: ТДПИ 2006.

3. Давлетшин М.Г., Алимқулов Ё., Убайдуллаев А., Умаров У., Алимова Ф., Тўйчиева С. Психология: қисқача изоҳли луғат (ўзбек тилида). – Тошкент, ТДПУ, 2010.

4. Rosenfeld G. Theorie and practicum der lern motivation. – Berlin, 1993.